



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG‘I

20 21 y. “ 19 ” iyul _____

N^o _____ 01-10/152 _____

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-son Qonuni ijrosini ta‘minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-son Qonuni ijrosini ta‘minlash maqsadida,

B U Y U R A M A N :

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-son Qonuni (keyingi o‘rinlarda – Qonun) ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Yoshlar ishlari agentligida davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga;

Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati xarid komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki:

xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va davlat buyurtmachisining yuqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini jalb etishi mumkin;

xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida maslahat va (yoki) takliflarni ko‘rib chiqish, baholash hamda taqqoslash bo‘yicha xulosa olish uchun ekspertlar yoki ekspert tashkilotlari tegishli shartnoma asosida jalb etilishi, shu jumladan tekin asosida jalb etilishi mumkin;

agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan Agentlikka tender o‘tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi berilsa, xarid qilish tartib-taomili davlat xaridining summasidan qat‘i nazar tanlash orqali amalga oshiriladi. Bunda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati budjet buyurtmachilari

uchun bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan oshgan hollarda davlat xaridiga doir texnik topshiriqlar qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasi kiritiladi;

ma'lum sohadagi mutaxassis ishtirokiga zarurat tug'ilganda komissiya raisi topshirig'iga muvofiq komissiya tarkibiga Yoshlar ishlari agentligi xodimlari yoki boshqa mutaxassislar ham kiritilishi mumkin.

4. Qonunga muvofiq xarid komissiyasi ijrochini aniqlash tartib-taomillari davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asosliliigi va beg'arazligi uchun javobgar ekanligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Yoshlar ishlari agentligi:

a) Ishlar boshqarmasi elektron do'kondan foydalanish, boshlang'ich narxni pasaytirish uchun auksion o'tkazish, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga va ushbu buyruq bilan tasdiqlangan nizom talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlasin;

b) markaziy apparati xarid komissiyasi xarid to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga va ushbu buyruq bilan tasdiqlangan nizom talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlasin;

d) Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (A.Muminov) Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati Ichki audit xizmati boshlig'i O.Ravshanov va Ishlar boshqarmasi bosh mutaxassisi A.Gulyamovning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi o'quv markazida davlat xaridlari tartib-taomillari bo'yicha o'quv kurslarida o'qishini ta'minlasin;

e) hududiy boshqarmalari boshliqlari:

bir hafta muddatda mazkur buyruq asosida davlat xaridlarini amalga oshirish tartibini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

o'z faoliyatida davlat xaridlari sohasidagi qonunchilik hujjatlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlasin.

6. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktorining 2021-yil 15-fevraldagi "Yoshlar ishlari agentligida davlat xaridlarini amalga oshirish tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi 01-10/23-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



A. Sa'dullayev

Yoshlar ishlari agentligida davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida NIZOM

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni (keyingi o'rinlarda – Qonun) hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligining 2018-yil 15-maydagi 185-son buyrug'i bilan tasdiqlangan (2018-yil 26-may, ro'yxat raqami 3016) Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom talablariga asosan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati (keyingi o'rinlarda – Agentlik) tomonidan xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

avans to'lovi – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Agentlik va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan kiritiladigan, operatorning vositachilik yig'imini va tomonlarning zakalatini o'z ichiga olgan moliyaviy mablag'lar summasi;

boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion – davlat xaridlari elektron tizimining maxsus platformasida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli bo'lib, uni tashkil etish chog'ida narx g'olibni aniqlashning yagona mezon bo'ladi;

davlat buyurtmachisi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) – davlat xaridlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

davlat xaridlari – Agentlikning tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta'minlash jarayoni;

davlat xaridlari to'g'risidagi shartnoma – Agentlik va davlat xaridlarining ijrochisi o'rtasidagi davlat xaridlari bo'yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuv;

davlat xaridlarining subyektlari – Agentlik, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi, davlat xaridlarining ijrochisi, xarid komissiyasi, davlat xaridlari elektron tizimining operatori, ixtisoslashgan tashkilot va ekspert, ekspert tashkiloti;

dastlabki malaka tanlovi – xarid qilish hujjatlarida belgilangan texnik, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa o'ziga xos xususiyatlarga muvofiq bo'lgan xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazishga qo'yiladigan malakali xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tanlab olishning xarid komissiyasi tomonidan o'tkaziladigan tartib-taomili;

yagona yetkazib beruvchi – tabiiy monopoliya subyekti, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida farmonlarida, qarorlarida va farmoyishlarida yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan subyektlar,

shuningdek davlat tomonidan xarid qilinayotgan, bozorda muqobillari mavjud bo'lmagan noyob tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchi;

lot – turli belgilari bo'yicha guruhlashtirilgan (foydalanish, texnik va funksional xususiyatlariga ko'ra) bir xil turdagi tovarlarning jamlanmasi sifatida Agentlik tomonidan belgilangan va alohida shartnoma bo'yicha xarid predmetining miqdoriy qismi;

taklifni ta'minlash – Agentlikning talabiga binoan ishtirokchi tomonidan takliflar va majburiyatlarning garov, kafolat, zakalat tarzida yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usulda ta'minlanishi;

shaxsiy kabinet – elektron davlat xaridlarida ishtirok etishni hamda zarur axborotni joylashtirishni va undan foydalanishni ta'minlaydigan, Agentlik yoki xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisining maxsus axborot portalidagi individual sahifasi;

reja-jadval – tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridining hajmlari va joylashtirish muddatlarini nazarda tutuvchi hujjat;

davlat xaridlari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri shartnoma – maxsus axborot portalida ro'yxatga qo'yilishi shart bo'lgan, davlat xaridlari bo'yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida Agentlik va davlat xaridlarining ijrochisi o'rtasida tuziladigan bitim;

qadam o'lchovi – narxni pasaytirish uchun auksionning boshlang'ich narxini yoki oldingi ishtirokchi narxining foiz bilan belgilanadigan kamaytirish pul miqdori;

hisob-kitob-kliring palatasi (keyingi o'rinlarda – HKKP) – avans to'lovlarini deponentlash va ularni hisobga olish yo'li bilan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajara oladigan ishtirokchilarni elektron xaridlarga kirishini ta'minlovchi maxsus axborot portalining tarkibiy bo'linmasi;

yagona yetkazib beruvchilar reyestri – vakolatli organ bilan kelishilgan holda maxsus axborot portali operatori tomonidan yuritiladigan axborot resursi;

zaxiradagi g'olib – xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo'yicha xarid komissiyasining qaroriga muvofiq g'olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan deb topilgan xarid qilish tartib- ishtirokchisi;

maxsus axborot portali (keyingi o'rinlarda – portal) – operatorning davlat xaridlari o'tkazilishini, davlat xaridlari to'g'risidagi e'lonlar, davlat xaridlari yakunlari, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflari haqidagi axborotning va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa axborotning elektron shaklda joylashtirilishini va ko'rilishini, shuningdek elektron davlat xaridlari o'tkazilishini ta'minlovchi veb-sayti va maxsus elektron platformasi;

tabiiy monopoliya subyekti – tabiiy monopoliya sharoitlarida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va/yoki realizatsiya qilish bilan band bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt (yuridik shaxs);

tender – davlat xaridini amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili vositasida davlat xaridlarining ijrochisini aniqlash tartib-taomilini nazarda tutuvchi tanlov bo'lib, uning natijalariga ko'ra davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif etgan xarid qilish tartib-taomillarining ishtirokchisi g'olib deb topiladi;

tender taklifi – tender hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq tender predmetiga nisbatan ishtirokchining taklifi;

xarid qilish tartib-taomili – davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlar majmui;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining affillangan shaxsi – qaror qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan va (yoki) xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan qarorlar qabul qilishga ta’sir ko‘rsatadigan, shu jumladan yozma kelishuv asosida ta’sir ko‘rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs, shuningdek xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan shunday huquqqa ega bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ (keyingi o‘rinlarda – vakolatli organ) – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

davlat xaridlarining elektron tizimi (keyingi o‘rinlarda – elektron tizim) – elektron davlat xaridlari jarayonida davlat xaridlari subyektlarining o‘zaro hamkorligini ta’minlaydigan tashkiliy, axborot va texnik vositalarning dasturiy majmui;

elektron davlat xaridlari – axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlarini amalga oshirish shakli;

Shartnomalarning yagona reyestri – davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ tomonidan maxsus axborot portalida yuritiladigan, Agentlik tomonidan tuzilgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomalarning reyestri;

elektron do‘kon – davlat xaridlarining elektron tizimidagi maxsus maydonda savdolarni elektron shaklda amalga oshirishni nazarda tutuvchi, maxsus talablar qo‘yilmaydigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

eng yaxshi takliflarni tanlash – xarid qilish tartib-taomillarining bir nechta ishtirokchisidan olingan takliflarni taqqoslash asosida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

e‘lon – davlat xaridlarini amalga oshirish usuli, talablari va shartlari, takliflarni taqdim etish muddatlari hamda tartibi ko‘rsatilgan, maxsus axborot portalini orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga Agentlik tomonidan joylashtiriladigan bo‘lajak davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborot;

g‘olib – xarid qilish tartib-taomillari yakunlariga ko‘ra taklifi eng maqbul deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi.

2. Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari quyidagilardan iborat:

elektron do‘kon;

boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion;

eng yaxshi takliflarni tanlash;

tender;

to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari.

Xarid qilish tartib-taomillari elektron shaklda amalga oshirilishi mumkin.

3. Xaridlarga tayyorgarlik o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

portalda xaridlarning yillik va choraklik reja-jadvallarini joylashtirish;

portalda xaridlar o'tkazilishi haqidagi e'lonlarni joylashtirish;

Agentlik va xarid jarayonlari ishtirokchilari (keyingi o'rinlarda – ishtirokchi) tomonidan xaridlarda ularning ishtirokini ta'minlovchi avans to'lovlarini kiritish.

4. Davlat xaridlarini rejalashtirish Agentlik tomonidan amalga oshiriladi va xaridlarni tizimlashtirishdan, davlat xaridlarini rejalashtirish hamda budget va investitsiya jarayonlaridagi rejalashtirish, shuningdek xo'jalik faoliyatini rejalashtirish o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Davlat xaridlarining yillik reja-jadvali Agentlik tomonidan joriy yilning 25-martiga qadar maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

5. Portalda joylashtiriladigan reja-jadval quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

xarid predmeti;

xarid o'tkaziladigan oy;

Agentlik manzili;

xarid predmetini moliyalashtirish manbalari;

tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish joyi (manzili), muddatlari va shartlari.

2-bob. Elektron davlat xaridlari

1-§. Elektron davlat xaridlarini o'tkazishning umumiy shartlari

6. Agentlik va ishtirokchilar HKKPdagi shaxsiy hisobvaraqlariga avans to'lovlarini kiritganlaridan so'ng elektron davlat xaridlariga (keyingi o'rinlarda – elektron xaridlar) qo'yiladi.

7. Agentlik va ishtirokchilar elektron xaridlardagi ishtiroklarini elektron raqamli imzolaridan (bundan buyon matnda – ERI deb yuritiladi) foydalangan holda amalga oshiradi. Agentlik va ishtirokchi tomonidan ERIdan foydalanish, elektron tizimda tuziladigan shartnomalarni haqiqiy deb topish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

8. Elektron do'kon va boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion ishtirokchilarining zakalati boshqa ishtirokchilar tomonidan pastroq narxdagi taklif berilgunga qadar xatlanadi.

Bunda zakalat miqdori tovar (ish, xizmat) qiymatining 3 foizidan oshmasligi kerak.

2-§. Elektron do'kondan foydalanish

9. Elektron do'kon ishtirokchilarning takliflaridan shakllantiriladi. Ishtirokchining elektron do'konga qo'yilgan taklifi Agentlikka yuborilgan ommaviy ofertadir.

10. Qonunning 49-moddasiga muvofiq elektron do'konda:

bir shartnoma bo'yicha budget buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming besh yuz baravarigacha qiymatdagi tovarlarning;

bir shartnoma bo'yicha budget buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha qiymatdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin.

Elektron do‘kon orqali budget buyurtmachisi tomonidan ayni bir turdagi tovarlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining o‘n ming baravarigacha amalga oshirilishi mumkin.

Elektron do‘kon orqali budget buyurtmachisi tomonidan ayni bir turdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravarigacha amalga oshirilishi mumkin.

11. Ishtirokchi elektron do‘konga joylashtirilgan o‘z taklifida quyidagilarni ko‘rsatadi:

- taklif etilayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) nomi;
- sotish narxi;
- tovarning eng ko‘p va eng kam to‘pi;
- tovarning rusumi va texnik parametrlari (standartlashtirish bo‘yicha normativ hujjat, texnik pasport);
- tovarning fotosurati;
- tovar yetkazib beriladigan (ish bajariladigan, xizmat ko‘rsatiladigan) hudud;
- tovarni ishlab chiqaruvchi va u kelib chiqqan mamlakat to‘g‘risidagi axborot;
- kafolat shartlari va muddati to‘g‘risidagi axborot;
- tovar ishlab chiqarilgan yil (ozuq-ovqatlar va tez buziladigan tovarlarning ishlab chiqarilgan kuni, oyi, yili);
- tovarning yaroqlilik muddati (kun, oy, yil);
- ishni bajarish, xizmatni ko‘rsatish muddati;
- tovarni (ishni, xizmatni) majburiy sertifikatlashtirish talab etiladigan hollarda muvofiqlik sertifikati to‘g‘risidagi axborot, shuningdek sanitariya-epidemiologik, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya xulosalari yoki ekologik ekspertiza haqidagi axborot;

qonunchilikka binoan litsenziyalashning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat olishning yoxud faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnomani yuborishning majburiy talabi mavjud bo‘lgan hollarda litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat yoxud faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnoma mavjudligi to‘g‘risidagi axborot.

12. Ishtirokchi elektron do‘konda joylashtirilgan axborotning ishonchligi bo‘yicha to‘liq javobgar bo‘ladi.

13. Ishtirokchining ofertasi u elektron do‘konda joylashtirilgan paytdan e‘tiboran o‘n besh ish kuni mobaynida amal qiladi. Ushbu muddat tugaganidan keyin ishtirokchi uni yana o‘n besh ish kuniga aktivlashtirishga haqli.

14. Oferta Agentlik tomonidan akseptlangunga qadar ishtirokchi ofertani har qanday muddatda chaqirib olishga yoki unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga haqli.

15. Agentlik elektron do‘konda ishtirokchilarning ofertalarini o‘rganish yo‘li bilan o‘zi uchun zarur bo‘lgan tovarni (ishni, xizmatni) tanlaydi va tovar (ish, xizmat) tanlanganidan keyin narxlar so‘rovi mexanizmidan foydalanadi.

16. Agentlik elektron do‘konning qo‘shimcha sahifasidan foydalangan holda, davlat xaridlarini hududlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent

shahri) kesimida mahalliy ishlab chiqaruvchilar (ish bajaruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar) o'rtasida amalga oshirishi mumkin.

17. Portal elektron tizimi avtomatik rejimda, narxlar so'rovi mexanizmini amalga oshirgan holda tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchiga, shuningdek elektron do'konda o'xshash tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) taklif etayotgan barcha ishtirokchilarga xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etish to'g'risida takliflar yuborilishini ta'minlaydi.

18. "Milliy do'kon" orqali xaridlarni amalga oshirishda elektron tizim narxlar so'rovi mexanizmini faqat Agentlik joylashgan hududdagi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) mahalliy ishlab chiqaruvchilar (ish bajaruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar) orasida yuborilishini ta'minlaydi.

19. Narxlar so'rovi mexanizmi, Agentlikka o'xshash tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) taklif etayotgan ishtirokchilardan pastroq narxni so'rash imkoniyatini taqdim etadigan elektron tizimning funksiyasidan iborat.

20. Ishtirokchilar narxlar so'rovida ishtirok etish to'g'risidagi taklif portal tomonidan yuborilgan paytdan e'tiboran qirq sakkiz soat ichida o'z takliflarini berishga haqli.

21. Ishtirokchilarning manziliga yuborilayotgan narxlar so'rovida ishtirok etish to'g'risidagi taklif Agentlik tomonidan tanlangan ishtirokchining ofertasiga havolani o'z ichiga oladi.

Ishtirokchilar narxlar so'rovida ishtirok etish haqidagi taklifni olgan vaqtdan boshlab Agentlik tomonidan tanlangan oferta narxidan pastroq narx bo'yicha taklif kiritishga haqli.

22. Agentlik va ishtirokchilar xaridlarni elektron do'konda tartib-taomili orqali amalga oshirishdan oldin HKKPdagi shaxsiy hisobvarag'iga ishtirokchi oferta qiymatining 3 foizi miqdoridagi zakalatni joylashtiradi.

23. Agar narx so'rovi mobaynida ishtirokchi tomonidan taklif qilingan narx Agentlik tomonidan tanlangan narxdan 15 va undan ortiq foizga past bo'lsa, ishtirokchi Agentlik tomonidan tanlangan ofertaning narxi va o'zi tomonidan taklif etilgan narxning farqi miqdoridagi qo'shimcha zakalatni xarid predmetining har bir birligi uchun oldindan kiritishi shart.

Qo'shimcha zakalat mavjud bo'lmagan taqdirda ushbu takliflar elektron tizim tomonidan avtomatik ravishda rad etiladi.

24. Ishtirokchilar tomonidan berilgan narx bo'yicha takliflarni taqqoslash portal tomonidan avtomatik rejimda amalga oshiriladi.

25. Ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumotlardan Agentlik yoki ishtirokchilar yakuniy natijalar e'lon qilinguniga qadar foydalana olmaydi. Ijrochining nomi va uning taklif qilgan narxi g'olib aniqlangan paytda portalda aks ettiriladi.

26. Portal shartnomani Agentlik tomonidan tanlangan ishtirokchining ofertasida bayon etilgan shartlarga muvofiq hamda ishtirokchilar tomonidan taklif etilgan eng past narxda shakllantiradi.

27. Portal tuzilgan bitimni ro'yxatga oladi, Agentlik va ishtirokchining shaxsiy hisobvarag'idan operatorning vositachilik haqini yechib oladi. Bitimni ro'yxatga olish elektron tizim tomonidan shartnomani shakllantirish va unga o'ziga xos raqam berish bilan amalga oshiriladi.

28. Agar xarid qilish tartib-taomillari tugaganidan keyin bir ish kuni ichida Agentlik tomonidan narx so'rovi yuborilmasa, davlat xaridlarining portal Agentlik va ijrochi o'rtasidagi bitimni ro'yxatdan o'tkazadi.

29. Xarid qilish tartib-taomillarining yakuniga ko'ra faqat tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchigina ishtirok etgan hollarda davlat xaridlarining elektron tizimi Agentlikka elektron shaklda savdolashish imkonini beruvchi so'rovni yuboradi. Bunda Agentlikda tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchiga u taklif qilgan narxdan pastroq asoslangan narx so'rovini yuborish imkoniyati paydo bo'ladi. Tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchi bunday so'rovni bir ish kuni ichida qabul qilishi yoki rad etishi mumkin.

30. Tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchi narx so'rovini qabul qilganda davlat xaridlarining elektron tizimi Agentlik va ijrochi o'rtasidagi bitimni Agentlik tomonidan yuborilgan so'rov narxi asosida ro'yxatdan o'tkazadi.

31. Agar tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchi narx so'rovini qabul qilmasa yoki rad etsa, Agentlik o'z xohishiga ko'ra mazkur ishtirokchi bilan shartnomani rasmiylashtirishi yoki boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion yoki eng yaxshi takliflarni tanlash orqali xaridni amalga oshirishi mumkin. Bunda javobgarlik Agentlikning zimmasiga yuklatiladi.

Agar xarid qilish tartib-taomillari tugaganidan keyin bir ish kuni ichida Agentlik tomonidan narx so'rovi yuborilmasa, Agentlikning elektron tizimi Agentlik va ijrochi o'rtasidagi bitimni ro'yxatdan o'tkazadi.

32. Agentlik tomonidan narxlarni o'rganish davlat xaridlarining elektron tizimi yoki boshqa ochiq manbalarning ma'lumotlaridan foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Elektron do'kondan foydalanish orqali davlat xaridlarini amalga oshirish Agentlikning Ishlar boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

3-§. Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun auksion o'tkazish

33. Qonunning 52-moddasiga asosan boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion (bundan buyon matnda – auksion deb yuritiladi) vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

tovarning standart xususiyatlarga ega bo'lishi;

tovarning texnik, ekspluatatsiya qilinish xususiyatlarini va boshqa xususiyatlarini baholash hamda taqqoslash zarurati mavjud emasligi;

tovarning qiymati bir shartnoma bo'yicha budjet buyurtmachilari uchun olti ming baravarigacha bo'lgan miqdorini tashkil etishi kerak.

Xizmatlar va ishlarning davlat xaridi auksion obykti bo'la olmaydi.

Tovarni e'londa bayon etilgan shartlar asosida eng past narx bo'yicha yetkazib berishni taklif qilgan ishtirokchi auksion g'olibi bo'ladi. Bunda mazkur norma belgilangan sifat standartlariga muvofiq bo'lgan tovarlarni yetkazib berish talabini bekor qilmaydi.

34. Auksion faqat elektron shaklda o'tkaziladi.

Auksionda ishtirok etish uchun Agentlik markaziy apparati Ishlar boshqarmasi maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga e'lon joylashtiradi.

35. Auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon auksion g'olibini aniqlangunga qadar kamida besh kun avval joylashtirilishi kerak.

36. Auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:
 Agentlikning manzili;
 auksionning birinchi va oxirgi kuni (auksion o'tkaziladigan davr);
 auksion predmetining boshlang'ich narxi;
 auksion predmeti va uning xususiyati (auksion predmetining tasnifi);
 tovarning miqdori;
 tovarlarni yetkazib berish muddatlari va shartlari;
 tovarlar yetkazib beriladigan joy (manzil);
 tovarning amaldagi standart talabiga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat mavjudligi haqidagi talab;

tovar majburiy sertifikatlashtirilishi talab etiladigan hollarda, muvofiqlik sertifikati va sanitariya-epidemiologik xulosa mavjudligi to'g'risidagi talab;

zarur bo'lganda, litsenziya, ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat yoxud faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnoma mavjudligi to'g'risidagi talab;

tovarning o'ziga xos xususiy parametrlarini ifodalovchi shartlar.

Auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'lanning va Agentlik buyurtmanomasining matniga auksion predmetiga taalluqli bo'lmagan va ishtirokchilar o'rtasida raqobatni cheklaydigan talablarni kiritish taqiqlanadi.

Maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtirilgan auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon avtomatik ravishda Agentlikning buyurtmanomasi etib o'zgartiriladi.

37. Auksion Agentlikning e'lonida bayon etilgan talablarni inobatga olgan holda o'tkaziladi.

38. Agar Agentlikning e'lonida boshqa holatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, ishtirokchi yangi tovarni yetkazib berishi shart.

39. Auksion elektron tizimda boshlang'ich narxni qadam-baqadam pasaytirish yo'li bilan o'tkaziladi. Qadam o'lchovi operator tomonidan vakolatli organ bilan kelishilgan holda belgilanadi, lekin ishtirokchi tomonidan kiritiladigan zakalat miqdoridan ortiq bo'lishi mumkin emas.

40. Auksionni o'tkazish, kiritilgan ta'minot summasiga muvofiq har bir lot bo'yicha auksiondan foydalanish, auksion g'oliblarini aniqlash, bitimni ro'yxatdan o'tkazish va shartnomani shakllantirish davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik rejimda amalga oshiriladi.

41. Agentlikning e'loni Agentlik tomonidan e'lon joylashtirilgan vaqtdan va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi pul mablag'lari mavjudligi haqidagi tasdig'i olingandan so'ng aktivlashtiriladi va ishtirokchilarning takliflarini qabul qilish boshlanadi.

42. Agar taklif narxi Agentlik tomonidan berilgan boshlang'ich narxdan past va/yoki boshqa ishtirokchining taklif qilgan narxidan past bo'lsa, portal ishtirokchilarning takliflarini qabul qilishni ta'minlaydi.

Auksionni o'tkazish chog'ida ishtirokchilar auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon chop etilgan kundan e'tiboran va u tamom bo'ladigan paytga qadar butun muddat ichida narx bo'yicha takliflarni cheklanmagan miqdorda berishga haqli.

Auksion uni o'tkazish haqidagi e'londa ko'rsatilgan muddatda (sana va vaqt), biroq oxirgi taklif kelib tushgan vaqtdan so'ng besh minutdan kam bo'lmagan vaqtda tugagan deb hisoblanadi.

Mazkur vaqt ichida yangi taklif berilgan taqdirda, ishtirokchilardan takliflarni qabul qilish muddati oxirgi taklif olingandan so'ng yana besh minutga uzaytiriladi.

Bunda, auksionning tugash muddati operatorning ish kuni va ish vaqtiga to'g'ri kelishi lozim.

Ishtirokchilarning nomi va ular bilan bog'lanishga doir ma'lumotlar auksion g'olibi aniqlanadigan paytga qadar davlat xaridlarining elektron tizimida aks ettirilmaydi.

Agar auksion mobaynida ishtirokchi tomonidan taklif qilingan narx boshlang'ich narxdan 15 va undan ortiq foizga past bo'lsa, ishtirokchi boshlang'ich narx va o'zi tomonidan taklif etilgan narxning farqi miqdoridagi qo'shimcha zakalatni xarid predmetining har bir birligi uchun oldindan kiritishi shart.

Qo'shimcha zakalat mavjud bo'lmagan taqdirda ushbu takliflar elektron tizim tomonidan avtomatik ravishda rad etiladi.

43. Auksion tugaydigan vaqt kelganda davlat xaridlarining elektron tizimi auksion o'tkazilgan vaqt davomida berilgan takliflar orasida eng past narxni taklif qilgan taklifni avtomatik ravishda aniqlab oladi. Eng past narx ko'rsatilgan taklifni bergan ishtirokchi auksion g'olibi sifatida davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan saralab olinadi. Ijrochining nomi davlat xaridlarining elektron tizimida aks ettirilib, ushbu tizim tuzilgan bitimni avtomatik ravishda qayd etadi va Agentlikning buyurtmanomasida bayon etilgan shartlarga muvofiq shartnomani shakllantiradi.

44. Agar auksionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo'lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa, auksion o'tkazilmagan deb hisoblanadi va g'olib aniqlanmaydi. Agentlik auksionni uch ish kuniga uzaytirishi yoki xaridni Qonun talablariga muvofiq elektron do'kon vositasida (ushbu Nizomning 10-bandida belgilangan mezonlar doirasida) yoki eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshirishi mumkin.

Auksionni uzaytirish avvalgi auksion tamom bo'lgan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida Agentlik tomonidan amalga oshiriladi.

Auksion orqali davlat xaridlarini amalga oshirish Agentlikning Ishlar boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

3-bob. Eng yaxshi takliflarni tanlash tartib-taomillari

1-§. Eng yaxshi takliflarni tanlash vositasida xaridlarni o'tkazish shartlari

45. Eng yaxshi takliflarni tanlash (bundan buyon matnda - tanlash deb yuritiladi) vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi;

tovarning (ishning, xizmatning) qiymati bir shartnoma bo'yicha budget buyurtmachilari uchun olti ming baravarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

Agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan Agentlikka tender o'tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi berilsa, xarid qilish tartib-taomili davlat xaridining summasidan qat'i nazar tanlash orqali amalga oshiriladi. Bunda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati budget buyurtmachilari uchun olti ming baravari

miqdoridan oshgan hollarda davlat xaridiga doir texnik topshiriqlar qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasi (bundan buyon matnda Kompleks ekspertiza qilish markazi deb yuritiladi) kiritiladi.

Tanlash majburiy tartibda elektron shaklda o'tkaziladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

2-§. Tanlash o'tkazishda xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish

46. Agentlik tanlashni o'tkazish uchun toq sonli a'zolaridan (kamida beshta kishidan) iborat xarid komissiyasini tuzadi.

Tanlashni o'tkazishda xarid komissiyasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lishi lozim, har bir majlis va qabul qilingan qaror bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

47. Xarid komissiyasi a'zolarining tarkibi va soni olinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zgarishi mumkin.

48. Xarid qilish xo'jalik faoliyati doirasida o'tkazilganda xarid komissiyasi Agentlikning vakillari orasidan, davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar mutaxassislarini jalb etilgan holda shakllantiriladi.

Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida maslahat va (yoki) takliflarni ko'rib chiqish, baholash hamda taqqoslash bo'yicha xulosa olish uchun ekspertlar yoki ekspert tashkilotlari tegishli shartnoma asosida jalb etilishi, shu jumladan tekin asosda jalb etilishi mumkin.

49. Xarid qilish loyiha faoliyati doirasida o'tkazilganda xarid komissiyasi vazifalarini belgilangan tartibda tashkil etiladigan loyihani amalga oshiruvchi guruh bajaradi, u xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazish natijalari to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

50. Xarid komissiyasi Agentlik direktorining buyrug'i bilan tuziladi va tarqatib yuboriladi.

51. Xarid komissiyasi raisi unig faoliyatiga rahbarlik qiladi. Xarid komissiyasi bo'lmaganda yoki o'z vazifalarini bajarish imkoniga ega bo'lmaganda Agentlik direktorining topshirig'iga asosan direktorning boshqa o'rinbosari xarid komissiyasiga raislik qiladi.

52. Tanlash o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning mas'ul kotibi tashkil etadi.

3-§. Tanlash hujjatlarini ishlab chiqish va tanlash o'tkazilishi haqida e'lon berish

53. Agentlik direktori tomonidan tanlash o'tkazish to'g'risidagi buyruq qabul qilinganidan so'ng Agentlikning markaziy apparati Ishlar boshqarmasi (bundan buyon matnda – Ishlar boshqarmasi deb yuritiladi) tomonidan tanlash hujjatlarining, shartnoma va tanlash o'tkazish haqidagi e'lonning matni ishlab chiqiladi.

54. Tanlash vositasidagi davlat xaridi to'g'risidagi axborot Agentlik tomonidan cheklanmagan miqdordagi shaxslarga maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining

elektron tizimiga, shuningdek Agentlikning xohishiga ko'ra – uning rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalarida tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'lonni va tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini joylashtirish yo'li bilan ma'lum qilinadi.

55. Agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan Agentlikka tender o'tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi beriladigan bo'lsa, tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'lon faqat davlat xaridiga doir texnik topshiriq bo'yicha Kompleks ekspertiza qilish markazining ijobiy xulosasi olinganidan keyin joylashtiriladi.

Tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon va tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari Agentlik tomonidan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida besh ish kuni oldin maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek Agentlikning xohishiga ko'ra – o'zining rasmiy veb-saytiga shuningdek ommaviy axborot vositalarida joylashtiriladi.

56. Xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) o'ziga xos xossalaridan yoki xususiyatlaridan kelib chiqib, Agentlik tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni ushbu bandning uchinchi qismida belgilanganiga nisbatan uzoqroq muddatga joylashtirishga haqli.

Tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon quyidagi axborotlarni o'z ichiga olishi kerak:

tanlashni o'tkazish shakli;

tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlang'ich narxi;

tanlash o'tkaziladigan joyning manzili;

ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar;

Agentlikning ishtirokchilar bilan bog'lanish uchun aloqa bog'lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxslarining yoki boshqa xodimlarining familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi va manzili;

ishtirokchilar tomonidan takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqt;

taklifni rasmiylashtirishga doir talablar.

Tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'lon va (yoki) tanlashda ishtirok etish uchun taklif qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa axborotlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

57. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirish bilan bir vaqtda Ishlar boshqarmasi tomonidan joylashtiriladi.

58. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan axborot;

ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta, to'lov tartibi va yetkazib berish shartlari haqidagi axborot;

tanlashda ishtirok etish uchun taklifni davlat tilida va, zaruriyatga qarab, boshqa tillarda tayyorlash majburiyligi to'g'risidagi talab;

ishtirokchilarga tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;

texnik topshiriq;

ushbu Nizomga muvofiq takliflarni baholash mezonlari va ko'rib chiqish tartibi;

tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ariza taqdim etish majburiyligi haqidagi talab.

Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida Agentlik har bir tovar (ish, xizmat) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko‘rib chiqilishini e‘lon qilishi mumkin. Bunday holda Agentlik turli tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun tanlashning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir tovar (ish, xizmat) uchun faqat bitta g‘olib aniqlanishi mumkin. Har bir tovar (ish, xizmat) uchun g‘olib xarid qilish tartib-taomilining shartlariga ko‘ra alohida-alohida aniqlanadi.

Tanlash hujjatlariga ularning ajralmas qismi bo‘lgan shartnoma loyihasi ilova qilinadi.

59. Agentlik xarid komissiyasi bilan kelishilgan tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini tasdiqlaydi.

60. Agentlik xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tanlashda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan bir ish kunidan kechiktirmay tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Bunda ushbu tanlashda takliflarni taqdim etishning tugash muddati kamida uch ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan birga, e‘londa ko‘rsatilgan axborot o‘zgartirilgan bo‘lsa, tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘longa o‘zgartirishlar kiritiladi. Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

61. Xarid komissiyasi o‘z majlislarida tanlash hujjatlarini Nizom talablariga muvofiqligini ko‘rib chiqadi va quyidagilarni:

takliflar qabul qilinadigan muddatlarini;

takliflarni ochish tartib-taomillarini;

takliflarni baholash mezonlarini;

taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta‘minlash shaklini belgilaydi.

62. Tanlash hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan so‘ng, xarid komissiyasi tomonidan tanlash hujjatlari qayta ko‘rib chiqiladi.

63. Tanlash hujjatlarida Agentlik har bir tovarni (ishni, xizmatni) xarid qilishda alohida lot sifatida e‘lon qilishi mumkin. Bunday holda Agentlik tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun tanlashning har xil loti bo‘yicha bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir lot uchun faqat bitta g‘olib aniqlanishi mumkin.

4-§. Tanlash takliflarini berish tartibi

64. Tanlash ishtirokchilarining takliflari e‘londa va tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan tartibda tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘londa ko‘rsatilgan manzil bo‘yicha muhrlangan konvertlarda taqdim etiladi.

65. Elektron shaklda tanlash o‘tkazish chog‘ida tanlash ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

66. Tanlash ishtirokchilarining takliflari ip bilan tikilgan, raqamlangan, muhr qo'yilgan va ishtirokchining vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan yoki takliflarning har bir varag'i imzolangan holda taqdim etish tavsiya etiladi.

67. Tanlash ishtirokchilarining takliflari e'londa belgilangan tartib asosida tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan manzilga muhrlangan konvertlarda (konvertning yelimlangan joyiga ishtirokchining muhri bosiladi) taqdim etiladi, unda texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligiga oid ma'lumotlar texnik va tijorat takliflari bilan birga bo'lishi kerak.

68. Takliflar solingan konvert tanlashni tashkillashtirish va o'tkazishga Ishlar boshqarmasi mas'ul shaxsiga ro'yxatga olish kitobida topshiruvchi va qabul qiluvchi shaxslar imzosi ostida, qabul qilishning sanasi va vaqtini qayd etish yo'li bilan qabul qilinadi. Ro'yxatga olish kitobi ip bilan tikilgan, raqamlangan va muhrlangan bo'lishi kerak.

69. Takliflar bilan birga ishtirokchilar xarid ob'ekti bo'lgan tovarning eskizi, rasmi, chizmasi, fotosurati va boshqa tasviri, nusxasi, namunasini taqdim etishi mumkin.

70. Tanlash ishtirokchisi bitta lotga faqat bitta taklif berishga haqli.

71. Tanlash ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi.

72. Tanlash ishtirokchisi taqdim etilgan takliflarni berish muddati tugaguniga qadar berilgan taklifni chaqirib olishga yoki unga o'zgartishlar kiritishga haqli.

73. Tanlash uchun takliflarni qabul qilish maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimida chop etilgan e'londa ko'rsatilgan muddat kelishi bilan tugatiladi.

74. Tanlash ishtirokchisi tanlash hujjatlaridagi talablarni, tanlash o'tkazish uchun e'londa belgilangan shaklda tushuntirish talabi bilan Agentlikka so'rov yuborishga haqli.

75. Ishlar boshqarmasi so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida, agar mazkur so'rov Agentlikka takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin kelib tushgan bo'lsa, ushbu so'rovga javob yuborishi shart.

76. Agentlik xarid qilish tartib-taomiliga nisbatan ishtirokchilar tomonidan takliflarning ta'minlanishi zarurligi tarzida talab belgilagan taqdirda, takliflar yuborilguniga qadar ishtirokchi ta'minotning maqbulligini tasdiqlash to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Ishlar boshqarmasi bunday so'rovga darhol javob beradi.

77. Tanlashda quyidagi mezonlarga muvofiq bo'lgan ishtirokchilar qatnasha oladi:
shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi;

shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;

soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;

o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilmaganligi.

Agentlik zarur bo'lganda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) o'ziga xos xossalardan yoki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ishtirokchilarga qo'shimcha talablar belgilashga haqli.

Ishtirokchilarga qo'yiladigan qo'shimcha talablar davlat xaridlarining asosiy prinsiplarga zid bo'lmash kerak.

Davlat xaridi to'g'risidagi axborotda ishtirokchilarga qo'yiladigan qo'shimcha talablar ushbu axborot e'lon qilingan paytda ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Ishtirokchilarga qo'shimcha talablar qo'yiladigan davlat xaridida ishtirok etish uchun ishtirokchilar dastlabki malaka tanlovidan o'tadi.

5-§. Tanlashni o'tkazish

78. Agar tanlashda ishtirok etish uchun takliflarni taqdim etish muddati tugagan paytda faqat bitta taklif taqdim etilgan yoki birorta ham taklif taqdim etilmagan bo'lsa, tanlash o'tkazilmagan deb hisoblanadi.

Bunda Agentlik Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi yoxud elektron do'kon (ushbu Nizomning 10-bandida belgilangan mezonlar doirasida) yoki auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

79. E'londa tanlash o'tkaziladigan vaqt sifatida ko'rsatilgan vaqtda xarid komissiyasi tanlash ishtirokchilari tomonidan berilgan takliflar solingan konvertlarni takliflarni baholash uchun ochadi. Kelib tushgan takliflar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga mos kelmaydigan takliflar xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi. Tanlashni o'tkazishda ishtirokchilarning boshlang'ich narxdan yuqori bo'lgan narx bo'yicha takliflari xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi.

80. Agar xarid komissiyasi tomonidan ishtirokchilardan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga javob beradigan kamida ikkita taklif olingan bo'lsa, tanlash o'tkazilgan deb hisoblanadi.

81. Ishtirokchilarning barcha takliflari tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholanadi va tanlash o'tkazish bayonnomasida qayd etiladi.

82. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kunidan oshishi mumkin emas.

83. Ishtirokchilarning takliflarini baholash ikki bosqichda amalga oshirilishi mumkin.

Summasi bir shartnoma bo'yicha budjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdoridan oshmaydigan tanlash xarid komissiyasining ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin, biroq bir moliya yilida bir budjet buyurtmachisi uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari miqdoridan oshmasligi kerak.

Bunda g'olib Agentlik tomonidan tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirmasdan, ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo'li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) potensial yetkazib beruvchilaridan narxlarni so'rash yo'li bilan aniqlanadi.

84. Rasmiylashtirilgan hujjatlar, tuzilgan shartnomalar va ularga doir qo'shimcha kelishuvlar to'g'risidagi axborot ular rasmiylashtirilgan yoki tuzilgan sanadan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay Agentlik tomonidan maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

85. Uch yoki undan ortiq tanlash ishtirokchilari – mahalliy ishlab chiqaruvchilar bo‘lgan taqdirda davlat xaridlari Agentlikning tanlashiga ko‘ra mahalliy ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida amalga oshirilishi mumkin.

6-§. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash

86. Tanlash ishtirokchilari tomonidan berilgan takliflar solingan konvertlar tanlash komissiyasi yig‘ilishida ochiladi.

87. E‘londa tanlashni o‘tkazish vaqti sifatida ko‘rsatilgan vaqtda xarid komissiyasi tanlash ishtirokchilari tomonidan berilgan takliflar solingan konvertlarni takliflarni baholash uchun ochadi. Tanlash ishtirokchisining vakolatli vakili konvertlarni ochish tartib-taomili chog‘ida hozir bo‘lishga haqli.

88. Takliflar solingan konvertlarni ochishda ularda barcha hujjatlarning mavjudligi va to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi tekshiriladi. Tegishli hujjatlar konvertda mavjud bo‘lmagan holatda, xarid komissiyasi ushbu taklifni ko‘rib chiqish va baholashga qo‘ymaslikka haqli.

89. Tanlash takliflari solingan konvertlarni ochish jarayoni Ishlar boshqarmasi tomonidan videoyozuvga tushiriladi. Konvertlarni ochish davomida ishtirokchilar taqdim etgan barcha hujjatlar va tijorat taklifining narxi o‘qib eshittiriladi.

90. Xarid komissiyasi g‘olibni aniqlash uchun rad etilmagan takliflarni tanlash hujjatlarida qayd etilgan mezonlar asosida baholashni amalga oshiradi.

91. Tanlash hujjatlarini baholash maqsadida xarid komissiyasi komissiya a‘zolari va ekspertlardan iborat bo‘lgan baholovchi guruh tuzishga haqli.

92. Taklif Qonunning va tanlash hujjatlarining talablariga muvofiq bo‘lsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi.

93. Baholash paytida xarid komissiyasi tanlash ishtirokchilaridan takliflari bo‘yicha tushuntirishlar so‘rashga haqli. Mazkur jarayon rasmiy ravishda yozma shaklda tanlash tashkilotchisi orqali belgilangan tartibda olib boriladi. Tushuntirish jarayonida taklifning mohiyati, shuningdek narxi yuzasidan biror-bir o‘zgartirishlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

94. Tanlash taklifi tanlash hujjatlari bilan belgilangan muddat mobaynida kuchida qoladi.

95. Tanlash ishtirokchisining konvertini ochishda xarid komissiyasi tomonidan tanlash taklifining malakaga oid, texnik va narx qismi bo‘yicha o‘rganish o‘tkaziladi. Xarid komissiyasining tanlash takliflarining texnik va narx qismini baholash haqidagi qarori tanlash g‘olibini aniqlash haqidagi bayonnomada qayd etiladi.

96. Tanlash hujjatlarida va taklifda ko‘rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan tanlash ishtirokchisi g‘olib deb topiladi.

97. Xarid komissiyasi ijrochini va zaxira g‘olibni aniqlaydi yoki tanlashni o‘tkazilmagan deb topadi.

98. Agar tanlash hujjatlarida tanlashning har bir tovari (ishi, xizmati) xarid qilish tartib-taomilining alohida loti sifatida ko‘rib chiqilishi nazarda tutilgan bo‘lsa, xarid komissiyasi g‘olibni tanlashning har bir loti bo‘yicha aniqlaydi.

99. Tanlash o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining har bir a'zosi ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Xarid komissiyasining raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega emas.

100. Tanlash o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining majlislari yuzma-yuz yoki sirtidan (so'rov orqali, barchaning ishtirokisiz) o'tkazilishi mumkin. Yuzma-yuz majlislar konferensiyalar (videokonferensiyalar va hokazo) shaklida o'tkazilishi mumkin.

101. Tanlash o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining qarori komissiya a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

102. Takliflarni ko'rib chiqish hamda baholash natijalari bayonnomada qayd etiladi va tanlash o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolanadi. Bayonnoma Ishlar boshqarmasi tomonidan u rasmiylashtirilgan kunda davlat xaridlarining elektron tizimiga muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirilishi kerak.

Muhokama uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin kelib tushgan e'tirozlar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

103. Agentlik tomonidan xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalari to'g'risidagi axborot asosida xarid komissiyasining tegishli majlisi bayonnomasi rasmiylashtiriladi va imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

104. Takliflarni taqqoslash natijalariga ko'ra xarid komissiyasi tanlash g'olibini aniqlaydi va tanlash o'tkazish natijalarini bayonnomada aks ettiradi.

105. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasida quyidagi axborot bo'lishi kerak:

tanlash takliflari ko'rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt to'g'risidagi;

hozir bo'lgan xarid komissiyasi a'zolarining va tanlash ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi haqidagi;

takliflari ko'rib chiqilgan tanlash ishtirokchilari to'g'risidagi;

takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan holda rad etilgan tanlash ishtirokchilari haqidagi;

tanlash g'olibi to'g'risida qabul qilingan qaror haqidagi;

tanlash g'olibining nomi (yuridik shaxslar uchun), familiyasi, ismi, otasining ismi (jismoniy shaxslar uchun), turgan joyi (pochta manzili).

106. Xarid komissiyasining qarori bilan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq g'olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan ishtirokchi sifatida e'tirof etilgan zaxiradagi g'olib aniqlanishi mumkin.

107. Tanlashning istalgan ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng Agentlikka tanlash natijalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli.

108. Ishlar boshqarmasi bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida tanlash ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.

109. Tanlash natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot Agentlik tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab uch ish kundan kechiktirmay joylashtiriladi.

7-§. Tanlash natijalarini rasmiylashtirish

110. Tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida tuziladi.

111. Tanlash natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot Ishlar boshqarmasi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab uch ish kundan kechiktirmay joylashtiriladi.

112. Agentlik tomonidan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida g'olib shartnomaning shartlari bajarilishi ta'minotini taqdim etganidan keyin shartnoma tuzilishini nazarda tutuvchi shart qo'yilishi mumkin.

113. G'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.

114. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishni rad etgan bo'lsa, Agentlik Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi yoxud elektron do'kon (ushbu Nizomning 10-bandida belgilangan mezonlar doirasida) yoki auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

115. Agentlik g'olib bo'lgan taklif akseptiga qadar istalgan vaqtda davlat xaridini bekor qilish huquqiga ega. Davlat xaridi bekor qilingan taqdirda Ishlar boshqarmasi bunday qaror qabul qilingandan keyin uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimi orqali maxsus axborot portalida mazkur qarorning asoslantirilgan sabablarini e'lon qiladi.

116. Agentlik davlat xaridi bekor qilinganligi uchun javobgar bo'lmaydi, bundan bekor qilish davlat buyurtmachisining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) oqibati bo'lgan hollar mustasno.

117. Agentlik o'tkazilgan tanlash yakunlari bo'yicha g'olib bo'lgan taklifning aksepti to'g'risida bir ish kuni ichida qaror qabul qiladi.

118. G'olib bo'lgan taklifning aksepti quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin, agar:

davlat xaridlari bekor qilinmagan bo'lsa;

g'olib bo'lgan taklifni yuborgan ishtirokchi chetlatilmagan bo'lsa;

xarid qilish tartib-taomili buzilmagan bo'lsa.

119. Tanlash natijalari bo'yicha shartnoma tanlash hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida g'olib aniqlangan vaqtdan e'tiboran o'n kundan kechiktirilmagan muddatda tuziladi.

120. Tanlash natijalari to'g'risidagi axborot Ishlar boshqarmasi tomonidan portalda e'lon qilinadi va tuzilgan shartnomalar reyestriga kiritiladi.

121. Tanlash g'olibi tanlash shartlari asosida shartnoma tuzishdan bosh tortgan hollarda shartnoma tuzish huquqi zaxira ijrochisiga o'tadi va tanlash g'olibiga ta'minot summasi qaytarib berilmaydi. Bunda zaxira ijrochisi tanlash g'olibi taklif qilgan narxda shartnoma tuzishi mumkin yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin.

122. Agentlik quyidagi holatlardan biri yuz bergan taqdirda taklifni ta'minlash summasi to'lanishini talab qilmaydi va ta'minlash to'g'risidagi hujjatni darhol qaytaradi yoki keyin uning qaytarilishini ta'minlaydi:

taklifni ta'minlashning amal qilish muddati tugashi;

davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomaning kuchga kirishi va ushbu shartnomaning bajarilishi ta'minlanishi, agar bunday ta'minlash davlat xaridi shartlarida talab etilsa;

davlat xaridlarining bekor qilinishi;

takliflarni yuborishning oxirgi muddati tugaguniga qadar taklifning chaqirib olinishi, agar davlat xaridi shartlarida bunday qaytarib olishga yo'l qo'yilmasligi aytib o'tilmagan bo'lsa.

123. Ikki yoki undan ortiq xaridlar rejasiga muvofiq qo'shma tanlashlar o'tkazilishi mumkin.

124. Qo'shma tanlashlar bir davlat dasturi yoki loyihalar portfelida ishtirok etayotgan doirada shakllantirilishi shart.

125. Tanlash ishtirokchilari tanlash shartlari va tanlashni o'tkazish tartib-taomillari buzilgan holatlarda tanlash natijalari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilishlari mumkin.

126. Xarid komissiyasi xaridlarning boshqa subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

127. Xarid komissiyasining o'z vakolati doirasida qabul qiladigan qarorlari Qonunning 20-moddasiga asosan barcha ishtirokchilar uchun majburiydir.

4-bob. Tender o'tkazish tartib-taomillari

1-§. Tender o'tkazish shartlari

128. Tender vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g'olibni aniqlash mezonlari tovarning (ishning, xizmatning) nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o'z ichiga oladi;

tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravaridan ortiq (budget buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan ortiq) miqdorni tashkil etadi.

129. Tender majburiy tartibda elektron shaklda o'tkaziladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

2-§. Tenderni o'tkazishda xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish

130. Davlat xaridini tender o'tkazish orqali amalga oshirish uchun kamida yetti nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi.

131. Shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlari tender ishtirokchilarining takliflarini baholash bo'yicha e'lon qilingan mezonlar asosida xarid komissiyasi tomonidan aniqlanadi.

Agar majlisda xarid komissiyasi a'zolari umumiy soning kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, xarid komissiyasi vakolatli hisoblanadi. Barcha qabul qilingan qarorlar bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

132. Tender komissiyasining a'zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog'liq bo'ladi hamda olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin.

133. Tender xo'jalik faoliyati doirasida o'tkazilganda tender komissiyasi Agentlikning vakillari orasidan, zarur bo'lgan taqdirda ovoz berish huquqiga ega ekspertlar jalb etilgan holda shakllantiriladi.

134. Tender loyiha faoliyati doirasida o'tkazilganda tender komissiyasi vazifalarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladigan loyihani amalga oshiruvchi guruh bajaradi, u tender natijalari to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

135. Tender komissiyasi Agentlik direktorining tegishli qarorlari bilan shakllantiriladi va tarqatib yuboriladi.

136. Tender komissiyasining tezkor faoliyatini uning mas'ul kotibi tashkil etadi.

3-§. Tender hujjatlarini ishlab chiqish va tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirish

137. Agentlik direktori tomonidan tender o'tkazish haqidagi buyruq qabul qilinganidan keyin Ishlar boshqarmasi tender hujjatlari loyihasi, shartnomasi va e'lonining matni ishlab chiqariladi.

138. Tender vositasidagi davlat xaridi to'g'risidagi axborot Agentlik tomonidan cheklanmagan miqdordagi shaxslarga maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat Agentlikning xohishiga ko'ra uning veb-saytiga yoki uning yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalarida tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni va tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini joylashtirish yo'li bilan ma'lum qilinadi.

139. Tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon faqat tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari yuzasidan Kompleks ekspertiza qilish markazining ijobiy xulosasi olinganidan keyin joylashtiriladi.

140. Tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon tender ishtirokchilaridan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida o'n ikki ish kuni va ko'pi bilan o'ttiz ish kuni oldin maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga Ishlar boshqarmasi tomonidan joylashtiriladi.

141. Tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon quyidagi axborotni o'z ichiga olishi kerak:

tenderni o'tkazish shakli;

tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlang'ich narxi;

tender o'tkaziladigan joyning manzili;

tender ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar;

Agentlikning ishtirokchilari bilan bog‘lanish uchun aloqa bog‘lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxslarining yoki boshqa xodimlarining familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi va manzili;

takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqt;

tender taklifini rasmiylashtirishga doir talablar.

Tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘lon qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa axborotni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

4-§. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari

142. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lonni joylashtirish bilan bir vaqtda Ishlar boshqarmasi tomonidan joylashtiriladi.

Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘londa ko‘rsatilgan axborot;

shartnoma bahosini va ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta hamda to‘lov tartibi haqidagi axborot;

tenderda ishtirok etish uchun taklifni davlat tilida va, zaruriyatga qarab, boshqa tillarda tayyorlash majburiyligi to‘g‘risidagi talab;

tender ishtirokchisi taklifining texnik va narxga oid qismi, ularni baholash tartibi haqidagi axborot;

tender ishtirokchilariga tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;

texnik topshiriq;

tender ishtirokchilarining takliflarini baholash mezonlari va ko‘rib chiqish tartibi;

tender ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha arizani taqdim etish majburiyligi haqidagi talab.

143. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida Agentlik har bir tovar (ish, xizmat) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko‘rib chiqilishini e‘lon qilishi mumkin. Bunday holda Agentlik turli tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun tenderning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir tovar (ish, xizmat) uchun faqat bitta g‘olib aniqlanishi mumkin. Har bir tovar (ish, xizmat) uchun g‘olib xarid qilish tartib-taomili shartlariga ko‘ra alohida-alohida aniqlanadi.

144. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga uning ajralmas qismi bo‘lgan shartnoma loyihasi ilova qilinadi.

145. Agentlik xarid komissiyasi bilan kelishilgan tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini tasdiqlaydi.

146. Agentlik xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tenderda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida bir ish kuni oldin tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Bunda ushbu tenderda takliflar berish tugaydigan muddat kamida o‘n ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan bir vaqtda, agar e‘londa ko‘rsatilgan axborot o‘zgartirilgan bo‘lsa,

tender o'tkazish to'g'risidagi e'lona o'zgartishlar kiritiladi. Tovarining (ishning, xizmatning) nomini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

147. Tender ishtirokchisi Agentlikka tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlar berish to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Mazkur so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida Agentlik, agar ushbu so'rov Agentlikka takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki ish kuni oldin kelib tushgan bo'lsa, tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlarni yuboradi. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

148. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun Kompleks ekspertiza qilish markaziga kiritiladi.

149. Agentlik tuzilgan shartnomalar, import kontraktlari va ularga qo'shimcha kelishuvlarning xarid qilish hujjatlariga muvofiqligi va haqiqiyliги uchun javobgar bo'ladi.

5-§. Tenderda ishtirok etish uchun taklif berish tartibi

150. Tender ishtirokchilarining takliflari e'londa va tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan tartibda tender o'tkazish to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan manzil bo'yicha muhrlangan konvertlarda taqdim etiladi.

151. Elektron shaklda tender o'tkazish chog'ida tender ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

152. Taklifda davlat xaridi obykti bo'lgan tovarning eskizi, rasmi, chizmasi, fotosurati va boshqa tasviri, nusxasi, namunasi bo'lishi mumkin.

153. Tender ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi.

154. Tender ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli.

155. Tenderda ishtirok etish uchun takliflarni qabul qilish maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimida chop etilgan e'londa ko'rsatilgan muddat kelishi bilan tugatiladi.

156. Agar takliflar berish muddati tugagan vaqtda tender ishtirokchilaridan kamida ikkita taklif olingan bo'lsa, tender ishtirokchilarining takliflari xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

157. Tenderda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa, tender o'tkazilmagan deb topiladi. Bunday holda Agentlik xarid qilish tartib-taomilini ayni o'sha shartlarda hamda tovarga (ishga, xizmatga) doir ayni o'sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart. Tovarga (ishga, xizmatga) doir baholash shartlari, mezonlari va talablarni o'zgartirish zarur bo'lganda, xarid komissiyasi asoslarni ko'rsatgan holda tegishli qarorni qabul qiladi. Tender ishtirokchisi bunday takliflarni berish muddati tugaguniga qadar berilgan taklifni qaytarib olishga yoki unga o'zgartishlar kiritishga haqli.

6-§. Tender ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash

158. Tender ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan oshishi mumkin emas.

159. Agar taklif Qonunning va tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarining talablariga muvofiq kelsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi.

160. Agar taklifni kiritgan tender ishtirokchisi Qonunda belgilangan talablarga mos kelmasa yoki tender ishtirokchisining taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilmagan bo'lsa, shuningdek tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelmasa, xarid komissiyasi taklifni rad etadi.

161. E'londa tender o'tkazish vaqti sifatida ko'rsatilgan vaqtda xarid komissiyasi tender ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan takliflar solingan konvertlarni takliflarni baholash uchun ochadi. Agar takliflar solingan konvertlar belgilangan vaqtda ochilmagan bo'lsa, Agetlik tender ishtirokchilariga ushbu holat yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish bergan holda, takliflar solingan konvertlar ochiladigan vaqt haqida xabarnoma yuborilishini va davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtirilishini ta'minlaydi. Bunda takliflar solingan konvertlar ochiladigan dastlabki belgilangan vaqt va keyingi vaqt oralig'idagi muddat besh ish kunidan oshmasligi kerak.

162. Tender takliflari solingan konvertlarni ochish jarayoni vaqtida Agentlik tomonidan videoyozuv amalga oshiriladi hamda konvertlarni ochish jarayonida ishtirokchilarning taqdim etgan barcha hujjatlari va tijorat taklifining narxi o'qib eshittiriladi, bundan tender elektron shaklda o'tkaziladigan hollar mustasno.

163. Tender ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi axborotning ishonchsiz ekanligi aniqlangan taqdirda, xarid komissiyasi bunday ishtirokchini xarid qilish tartib-taomilining istalgan bosqichida tenderda ishtirok etishdan chetlatishga haqli.

164. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida tender g'olibini aniqlash uchun xarid komissiyasi rad etilmagan takliflarni baholashni amalga oshiradi.

Birinchi bosqichda tender ishtirokchisi taklifining texnik qismini baholash amalga oshiriladi. Xarid komissiyasining tender taklifining texnik qismini baholash bo'yicha qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi, bayonnomada tenderning birinchi bosqichini baholash yakunlari ko'rsatiladi.

Tenderning ikkinchi bosqichi tenderning birinchi bosqichidan o'tgan kamida ikki nafar ishtirokchining takliflari mavjud bo'lganda o'tkaziladi.

Tenderning ikkinchi bosqichida taklifning narxga oid qismi ochiladi va baholanadi. Xarid komissiyasining tender taklifining narxga oid qismini baholash bo'yicha qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi, bayonnomada tenderning ikkinchi bosqichi g'olibi aniqlanadi. Tenderda ishtirokchilarning narxi boshlang'ich narxdan yuqori bo'lgan takliflari xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi.

165. Tender ishtirokchisining vakolatli vakili takliflar solingan konvertlarni ochish tartib-taomilida ishtirok etishga haqli.

166. Takliflarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha:

birinchi bosqichda — agar xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa yoki faqat bitta taklif tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelsa;

ikkinchi bosqichda — agar xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa, tender o'tkazilmagan deb topiladi.

167. Xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) texnik xususiyatlaridan kelib chiqib, tender bir bosqichda o'tkazilishi mumkin. Bunda Agentlik bu haqda tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatishi kerak. Mazkur holatda tender taklifining

texnik va narxga oid qismlarini ochish hamda baholash bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi.

168. Tender bir bosqichda o'tkazilganda, agar xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa yoki faqat bitta taklif tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelsa, tender o'tkazilmagan deb topiladi.

169. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan tender ishtirokchisi g'olib deb topiladi.

170. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq g'olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan deb topilgan ishtirokchi xarid komissiyasining qarori bilan zaxiradagi g'olib deb belgilanishi mumkin.

Agar tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida tenderning har bir tovari (ishi, xizmati) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko'rib chiqilishi nazarda tutilgan bo'lsa, xarid komissiyasi g'olibni tenderning har bir predmeti bo'yicha aniqlaydi.

Takliflarni ko'rib chiqish va baholash natijalari takliflarni ko'rib chiqish hamda baholash bayonnomasida qayd etiladi.

171. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasida quyidagi axborot bo'lishi kerak:

- tender takliflari ko'rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt to'g'risidagi;

- hozir bo'lgan xarid komissiyasi a'zolarining va tender ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi haqidagi;

- takliflari ko'rib chiqilgan tender ishtirokchilari to'g'risidagi;

- takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan holda rad etilgan tender ishtirokchilari haqidagi;

- tender g'olibi to'g'risida qabul qilingan qaror haqidagi;

- tender g'olibining nomi (yuridik shaxs uchun), familiyasi, ismi, otasining ismi (jismoniy shaxs uchun), turgan joyi (pochta manzili).

172. Tender bosqichlarida takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi xarid komissiyasining hozir bo'lgan barcha a'zolari tomonidan imzolanadi hamda undan olingan ko'chirma bayonnoma imzolangan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimida e'lon qilinadi.

173. Tenderning istalgan ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan keyin Agentlikka tender natijalari bo'yicha tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Agentlik bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida tender ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etadi.

Agentlik va xarid komissiyasi takliflarni qabul qilish tugaydigan paytga qadar ularni muhokama qilishga haqli emas.

7-§. Tender natijalari bo'yicha shartnoma tuzish

174. Tender natijalari bo'yicha shartnoma tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va shartnoma tuzilayotgan tender ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida tuziladi.

175. G'olib shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narxda (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa, Agentlik yangi tender o'tkazadi.

176. Tender natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot Agentlik tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

5-bob. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari

1-§. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi

177. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha davlat xaridlari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridi;

favqulodda holatlarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

sud muhokamasida ishtirok etish uchun advokatni (vakilni) tayinlash bilan bog'liq bo'lgan davlat xaridi;

ilm-fan, adabiyot va san'at asarlari, ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari kabi intellektual faoliyat natijalarining mazkur intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo'lgan yagona shaxsdan davlat xaridi;

narxi (tarifi) davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi.

178. Agentlik to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborotni shartnoma tuzilgan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirishi shart.

179. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborot maxsus axborot portaliga joylashtirilmagan bo'lsa, ushbu shartnomalar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmaydi.

180. Agentlik ushbu moddada nazarda tutilgan davlat xaridlarini amalga oshirish chog'ida xarid qilish tartib-taomillarining boshqa raqobatli turlaridan ham ushbu Qonun talablariga muvofiq foydalanishi mumkin.

181. Agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridini to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma asosida amalga oshirishga ruxsat berilsa, shartnoma va shartnomaga oid qo‘shimcha kelishuvlar Kompleks ekspertiza qilish markazida kompleks ekspertizadan o‘tkazilishi lozim, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno.

2-§. Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridi

182. Qonunda belgilangan tartibda yagona yetkazib beruvchi deb topilgan va Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchisi yagona yetkazib beruvchidir.

183. Yagona yetkazib beruvchidan tovar (ish, xizmat) olish zarur bo‘lgan taqdirda, yetkazib beruvchi hamda Agentlik o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma tuziladi va bu shartnoma to‘g‘risidagi axborot u tuzilgan paytdan e‘tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirilishi lozim.

Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridi quyidagi alohida hollarda amalga oshiriladi:

bozorda muqobillari bo‘lmagan va faqat yagona yetkazib beruvchidan olish mumkin bo‘lgan texnik jihatdan murakkab tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

madaniy qimmatliklarni olish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida yagona yetkazib beruvchi sifatida belgilangan subyektlardan davlat xaridlari;

tabiiy monopoliya subyekti tovarlarining (ishlarining, xizmatlarining) davlat xaridi;

o‘z vakolatlariga muvofiq faqat davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari yoki ularning tasarrufidagi davlat muassasalari va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ishlarga yoki ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan xizmatlarga ehtiyoj paydo bo‘lishi.

3-§. Yagona yetkazib beruvchilar reyestri

184. Yagona yetkazib beruvchilar reyestri vakolatli organ tomonidan maxsus axborot portalida yuritiladigan axborot resursidir.

185. Yagona yetkazib beruvchilar reyestri yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxati va yagona yetkazib beruvchilar ro‘yxatidan iboratdir.

6-bob. Baholash mezonlariga va tartib-taomillariga taalluqli qoidalar

186. Ishtirokchilarning tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha davlat xaridlariga taalluqli bo‘lgan takliflarini baholash mezonlarida:

narx;

yetkazib berish bazisi;

yetkazib berish muddatlari;
 tavsifnomalar va sifat ko'rsatkichlari;
 ekspluatatsiya qilish (foydalanish) muddati;
 to'lov va kafolatlar shartlari;
 muayyan davrdagi ekspluatatsiya qilishga, shu jumladan foydalanish va ta'mirlashga doir xarajatlar;

qonunchilik talablariga zid bo'lmagan boshqa mezonlar nazarda tutiladi.

Agentlik tomonidan belgilanadigan davlat xaridi shartlarida ishtirokchilarning takliflarini baholash mezonlari, ularning nisbiy qiymati, baholash tartib-taomillari doirasida baholash mezonlarini qo'llash tartibi bo'lishi kerak.

187. Ishtirokchilarning takliflarini baholash va g'olibni aniqlashda Agentlik faqat xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan baholash mezonlari va tartib-taomillaridan foydalanadi hamda bu mezonlar va tartib-taomillarni ushbu hujjatlarda bayon etilgan tartibda qo'llaydi.

188. Davlat xaridlarini amalga oshirishda ekologik muhitni yaxshilashga ko'maklashish yoki atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirni kamaytirish maqsadida ishtirokchilarning takliflarini baholash va ijrochini aniqlash jarayonida energiya samaradorligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik jihatdan maqbul materiallardan hamda ikkilamchi xomashyodan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish kabi mezonlardan va xarid qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) ekologik maqbulligini baholashga oid boshqa omillardan foydalanilishi mumkin.

7-bob. Agentlik bilan tuzilgan shartnomalar reyestri

189. Vakolatli organ davlat xaridlari elektron tizimlarining va maxsus axborot portalining axborotlar bazalari o'rtasida axborot almashish orqali Shartnomalarning yagona reyestrini yuritadi.

190. Shartnomalar reyestri elektron do'kon, boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash, tender, to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlar yakunlari bo'yicha shakllantiriladi.

191. Elektron do'kon va boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion orqali tuzilgan shartnomalar portalda ro'yxatga olinganidan so'ng avtomatik rejimda shartnomalar reyestriga kiritiladi.

192. Ishlar boshqarmasi tomonidan elektron do'kon, boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash, tender, to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlar shartnomalar haqidagi ma'lumotlar elektron tizimga kiritilgandan so'ng elektron tizim tomonidan avtomatik rejimda axborot shakllantiriladi va shartnomalar reyestriga kiritiladi.

193. Shartnomalar reyestriga Qonunning 47-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma'lumotlar kiritiladi.

194. Shartnomalar reyestridagi axborot to'lov undirilmagan holda tanishib chiqish uchun ochiq bo'lishi kerak.

195. Maxsus axborot portali va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi o'rtasidagi ma'lumotlar bazasi elektron hamkorligi orqali davlat Agentlik bilan tuzilgan shartnomalar reyestri bo'yicha onlayn ma'lumot almashinuvi amalga oshiriladi.

196. Qaysi shartnomalar to'g'risidagi axborot shartnomalar reyestriga kiritilmagan bo'lsa, o'sha shartnomalar uchun haq to'lanmaydi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

197. Davlat xaridlarini rasmiylashtirish, tuzilgan shartnomalar bo'yicha hisob-kitob qilish, shartnomaviy majburiyatlar bajarilishini monitoring qilish va shikoyatlarni, nizo va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

198. Xarid qilish tartib-taomili natijasi bo'yicha tuzilgan shartnomaga qo'shimcha kelishuv uning muhim shartlarini o'zgartirmasa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilishi mumkin.

199. Ishlar boshqarmasi tomonidan xarid qilish tartib-taomiliga oid barcha hujjatlar, videoyozuvlar qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda saqlanishi lozim.

200. Ishlar boshqarmasi xarid qilish hujjatlari va qo'llanilayotgan xarid qilish tartib-taomili yuzasidan tushuntirish berish to'g'risida so'rov olganidan keyin so'ralgan tushuntirishlarni ikki ish kuni ichida taqdim etadi.

201. Davlat xaridlari jarayonida quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

agar ishtirokchining va (yoki) ushbu ishtirokchi vakolatli vakilining yaqin qarindoshlari ijrochini tanlash bo'yicha qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lsa, shuningdek Agentlikning yoki u tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilotning vakili bo'lsa, ishtirokchining davlat xaridlarida ishtirok etishiga;

ishtirokchilarni kamsitishga, boshqa ishtirokchilarga zarar yetkazgan holda bir ishtirokchiga imtiyozlar yoki preferensiyalar taqdim etishga, bundan Qonunning 16-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;

manfaatlar to'qnashuviga;

davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli bo'lmagan usullarini qonunga xilof ravishda tanlashga, davlat xaridlari subyektlariga ta'sir o'tkazishga, davlat xaridlarida ishtirokchilarning ishtirok etishi to'g'risidagi axborotni oshkor etishga, ularning sonini asossiz ravishda cheklashga yoki ularning malakasiga qo'yilgan talablarni oshirishga, raqobatga yo'l qo'yimaslikning, uni cheklashning yoki bartaraf etishning boshqa shakllariga;

davlat xaridlari o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonning matniga ishtirokchilar o'rtasida raqobatni cheklaydigan qonunga xilof talablarni kiritishga;

narxlarni yoki ishtirokchilarni saralash natijalarini buzib ko'rsatish maqsadida ishtirokchilarning oldindan til biriktirishiga;

ishonchsiz yoki buzib ko'rsatilgan axborotni taqdim etishga yoki tarqatishga, shuningdek davlat xaridlari to'g'risidagi axborotdan foydalanishni asossiz ravishda cheklashga;

davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatga asoslangan usullarini chetlab o'tish maqsadida davlat xaridlari hajmini qismlarga bo'lib tashlashga;

ishtirokchilarning sun'iy tarzda pasaytirilgan narxlar bo'yicha takliflar berishiga, keyinchalik shartnomani imzolashni yoki uni tegishli tarzda bajarishni rad etishiga;

davlat xaridi tarkibiga texnologik va funksional jihatdan o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) kiritishga;

firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiyaning namoyon bo'lishiga;

moliyalashtirish manbalari va miqdorlari mavjudligi to'g'risida tasdiqlarga ega bo'lmagan yoki ajratilgan mablag'lar hajmidan ortiq miqdordagi davlat xaridlarini amalga oshirishga.

202. Xarid komissiyasi ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatadi, agar:

u to'g'risida Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd mavjud bo'lsa;

unda soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa;

o'ziga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilgan bo'lsa;

ishtirokchi xarid qilish hujjatlarining malaka, texnik va tijorat talablariga javob bermasa;

ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida Agentlik tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida Agentlikning yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;

ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik hollari aniqlansa.

Xarid komissiyasining ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish to'g'risidagi qarori va buning sabablari xarid qilish tartib-taomillari haqidagi hisobotga kiritiladi hamda ular haqida tegishli ishtirokchiga darhol xabar beriladi.

203. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Yoshlar ishlari agentligi direktorining
2021 yil "19"-iyuldagi 1049/52-son buyrug'iga
2-ilova

Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati xarid komissiyasi
TARKIBI

Komissiya raisi:

1. Yoshlar ishlari agentligi direktorining tegishli yo'nalish bo'yicha o'rinbosari

Komissiya a'zolari:

2. Ishlar boshqarmasi boshlig'i
3. Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig'i
4. Ichki audit xizmati boshlig'i
5. Yuridik byuro boshlig'i
6. Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi boshlig'i
7. Boshqarma (bo'lim) boshlig'i (davlat xaridi yo'nalishi bo'yicha)

Komissiya mas'ul kotibi

Ishlar boshqarmasi bosh mutaxassisi